

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARNI O'RNI VA AHAMIYATI

Abduvohidov Behzod

A R T I C L E I N F O.

Key words:

milliy iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, biznes.

Abstract

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahmiyati va mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirishdagi o'rni xususan o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantrishda olib borilayotgan islohatlar va ularning nazariy va amaliy natijalari haqida kichik tadqiqot amalga oshirilgan .

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

RISH


Mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy-rivojlanishi bozor iqtisodiyoti munosabatlarig asoslangan bo'lib xususiy mulkchilik munosobatlarida shakllanmoqda. O'zbekistonda ijtimoiy ishlab chiqarishda nodavlat sektorining xissasi tobora ortib unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadallik bilan o'sib borishi kuzatilmoxda. Yurtimiz Prezidenti tomonidan kichik biznes va tadbirkorliknining ulushini oshirishga katta e'tibor berilmoqda va buning sababi o'laroq bir qator faktlarni keltrishishimiz mumkin birinchidan milliy iqtisodiyotimizni barqarorligini taminlashda eng katta ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblanadi va kichik biznes subyektlarini tashkil etish nisbatan tavakkalchiligi anchayin kam va bundan tashqari tashkil etish uchun juda katta mablag' talab qilmaydi hamda bozor iqtisodiyoti konyukturasi talablariga tez moslasha olish imkoniyatiga ega.

Kichik biznes xususiy tadbirkorlik subyektlarni o'rni mamlakat iqtisodini barqaror ushlab turuvchi factor ekan una nega yurtimizda tadbirkorlik muhiti xitoy, AQSH yoki boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlar darajasida tashkil etilmagan degan sovol tug'ilishi tabiiy. Bunday savolga javob sifatida eng asosiy omil biznes muhitini tashkil etishi zarur bo'lган iqtisodiy va ijtimoiy insitutlar faolyati to'laligicha bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda faolyat ko'rsatmayotganligi eng asosiy omillardan biri ekanligini aytish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanishi ularning faoliyatini boshqarish mexanizmlarini va tashkiliy mexanizimlarni to'g'ri tashkil etishga bog'liqidir. Mamlakatimizda ushu sohada zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash hamda rivojlangan xorij tajribasini chuqr o'rganishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda¹.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunga kelib o'zbekistonning qonun chiqaruvchi organlari tomonida juda ko'plab istiqbolni o'ylagan holda uzoq muddatli huquqiy meyyoriy hujjatlar ishlab chiqilib amalda bu hujjatlar o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Natijada so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi anchayin o'sganligini ko'rishimiz mumkin.



O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi (2010-2024Q1)²

Yuqoridaqdi diagrammada bir qarashda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi 2010-yildan 2024-yilning 1-choragigacha bo'lgan muddatgacha ko'rsatgichlar pasaygandek ko'rindi go'yo ammo bitta fakt ni yodimizdan chiqarmasligimiz kerak bo'ladi. Bilamizki 2017- yilga qadar juda ko'plab iqtisodiy ko'rsatgichlar 1- prizidentimiz Islom Karimovnining rahbarlik davrida ma'lumotlar qalbakillashtirilgan va natijalar bo'rtirilib ko'rsatilgan, jadvalga etibor qaratadigan bo'lsak 2024- yilning 1-kvartalning o'zida kichik biznesning ulushi deyarli 50%ni tashkil qilgan va bu korsatgich yil so'ngida yanada ko'tariladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ularning iqtisodiy barqarorligini oshirishda quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi:

- ❖ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ko'plab ish o'rinalarini yaratadilar, bu esa ishsizlik darajasini kamaytirishga yordam beradi. Ko'p hollarda, ular mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari cheklangan shaxslar, masalan, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan guruhlar uchun ish o'rnlari yaratadilar.

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi-uning-mamlakat-ijtimoiy-iqtisodiy-taraqqiyotiga-ta-siri/viewer>

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2#:~:text=Kichik%20tadbirkorlik%20subyektlarining%20jami%20YaIMdagi%20ulushi>

- ❖ Kichik bizneslar mahalliy bozorlarda faoliyat yuritib, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo'shami. Ular mahalliy resurslardan foydalanib, daromadlarni mahalliy jamoalarda saqlaydi va shu orqali mahalliy iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.
- ❖ Kichik bizneslar tezkor va moslashuvchan bo'lib, yangi g'oyalar va innovatsiyalarni amalga oshirishga intiladilar chunki bunaday jarayonlar biznes egasi uchun ham daromadini oshiradi. Bu esa raqobatni oshiradi, bozorni diversifikatsiya qiladi va iqtisodiyotda innovatsiyalar kiritishga yordam beradi.
- ❖ Kichik bizneslar va xususiy tadbirkorlar davlatga soliq tushumlarini ko'paytiradi va buni natijasida pul aylanish jadalashadi. Bu soliq tushumlari davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun muhimdir.
- ❖ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy barqarorlikka ham hissa qo'shami. Ular mahalliy jamoalarning farovonligini oshiradi, ijtimoiy ijtimoiy munosabatlarni jadallashtiradi va jamoaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.
- ❖ Kichik bizneslar iqtisodiyotda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda diversifikatsiyani ta'minlaydi va shu orqali iqtisodiy risklarni kamaytiradi va umumiyligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
- ❖ Kichik bizneslar va xususiy tadbirkorlar texnologik tendension o'zgarishlarni tezda qabul qilib, ularni amaliyotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydilar. Bu esa iqtisodiyotning umumiyligi texnologik darajasini oshiradi va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Iqtisodiyot aniq raqamlar, hisob-kitoblar bilan birga, odamlar turmush tarzida yuz berayotgan real o'zgarishlar, samarani xush ko'radi. Mamlakat manfaatlarigagina xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim rivojlanishdan to'xtaydi bu jarayoni biz SSR tarixini ko'rsatsak bo'ladi. Oxirgi yillarda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohot va yangilanishlar avvalida iqtisodiyotimizdagagi miqdor va sifat o'zgarishlari qamrovini kengaytirish, uning bevosita aholi turmushiga ta'sirini oshirishga e'tibor qaratilayotgani boisi ham shundan. Bu boradagi salmoq va natijalar jadal sur'atlarda oshib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Aholi daromadlarida o'sish, turmush sharoitida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda.

Mazkur yo'nalishda jahon maydonida egallab turgan o'rnimiz ham yil sayin yuqorilab bormoqda. Xususan, 2021-yil 26-mayda o'tkazilgan Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishslash bo'yicha Respublika Kengashining navbatdagi yig'ilishida esa Global innovatsion indeksda O'zbekiston 2015-yilga nisbatan o'z o'rnnini 29 pog'onaga yaxshilab, 131 ta mamlakat orasida 93-o'rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida 4-o'rinni qayd etgani ta'kidlandi. Bu kabi muvaffaqiyatlarning bosh omillaridan biri — mamlakatimizda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat hamda uning tarkibidan o'rin olgan chora-tadbirlar yo'nalishlarining to'g'ri shakllantirilgani bilan bog'liq. O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning muhim va samarali yo'nalishlaridan biriga aylandi.³

So'ngi yillarda davlat dasturiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes muhitni vujudga keltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinmoqda hususan bularga:

- ❖ “Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-son⁴

³ <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>

⁴ Stat.uz

- ❖ Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.11.2023 yildagi PF-193-son⁵
- ❖ Germaniya taraqqiyot banki ishtirokida "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.11.2021 yildagi PQ-9-son
- ❖ «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki» aksiyadorlik jamiyati («O'zmilliybank») va Buyuk Britaniya yetakchi banklaridan biri Standard Chartered Bank va Germaniyaning Landesbank Baden-Württemberg (LBBW) o'rtasida Jahon banki a'zosi bo'lgan Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (MIGA), sug'urta qoplamasini ostida 100 mln yevro miqdorida sindikatlashtirilgan kredit liniyasini jalb qilish bo'yicha kredit shartnomasi imzolandi.⁶

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Yuqorida ko'rdikki mamlakatimizda kichik biznes subyektlar salmog'ini oshirish maqsadida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda strategik yo'nalishlar belgilab olingan va bu sayi xarakatlar natijasini quydagi keltrilgan malumotlarda o'z isbotini topadi

Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda kichik biznes faoliyati ko'laming tobora kengayib borayotganini har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni orqali ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 12,2 birlikni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 15,6 birlikka yetdi. e'tiborlisi, kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng yuqori o'sishi iqtisodiyotga pandemiyaning salbiy ta'siri sharoitida ro'y beryapti.⁷

Kichik biznesga xuddi iqtisodiyotga yangi kuch, yangi quvvat baxsh etuvchi soha sifatida qarash mumkin. Yangidan tashkil etiluvchi korxonalar keyingi paytda vujudga kelgan talabni, so'nggi texnologik yangilik va yutuqlarni ma'lum darajada o'zida jamlaydi va amaliyotga joriy etadi. Shunga ko'ra, korxonalarining yangilanish darajasi o'ziga xos ko'rsatkich hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi ushbu ko'rsatkichning holatini tahlil qiladigan bo'lsak, uning kichik biznes korxonalaridagi darajasi yirik korxonalarga nisbatan 2016-yilda 6,2 marta, 2020-yilda esa 6,9 marta yuqori bo'lganligini kuzatish mumkin. Ya'ni, aynan kichik biznes korxonalari iqtisodiyotimizni modernizatsiyalashda o'z faolligini namoyon etmoqda. Eng muhim, kichik tadbirkorlik subyektlari qandaydir ko'rsatma yoki undovlar ostida emas, balki iqtisodiyotdagi kon'yunkturani hisobga olgan holda erkin va mustaqil tashkil etilyapti. Aynan shu holat iqtisodiyot tarmoqlarining umumiyo ko'lamiga o'ziga xos tuzatishlar kiritadi. Jumladan, 2017—2020-yillar davomida yangidan tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining eng katta salmog'i savdo (jami korxonalarining 32 foizi), sanoat (21 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (12 foizi), qurilish (10 foizi), yashash va ovqatlanish (7 foizi) tarmoqlariga to'g'ri keladi. Bu esa mamlakatimiz yetakchi tarmoq va sohalari o'rtasidagi maqbul nisbatning shakllanishiga xizmat qiladi. Yana bir jihat, kichik tadbirkorlik iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, uning moslashuvchanligini ta'minlashning muhim omili hamdir. Iqtisodiyotdagi raqobat muhiti bu — turli mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarini va iste'molchilarini o'rtasida qulay sharoitga erishish hamda erishishi ko'zda tutilayotgan foyda yoki iqtisodiy nafni maksimallashtirish maqsadidagi iqtisodiy bellashuv (kurash), deyish mumkin.⁸


⁵ Stat.uz

⁶ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/06/04/nbu/>

⁷ <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>

⁸ <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>


Shuningdek, mazkur soha iste'mol bozoridagi talab va taklif muvozanatini tiklash hamda ta'minlashda asosiy tomonlardan biridir. Bundan tashqari Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o'rnlari yaratish borasidagi imkoniyat va salohiyati uning harakatchanligi, ko'lam jihatidan ixchamligi va yo'nalishni tez o'zgartira olishi kabi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. SBA ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil holatiga ko'ra, mamlakat bo'ylab 33,3 million kichik biznes sub'ektlari mavjud bo'lib, ularda 61,6 milliondan ortiq kishi ishlaydi. Qo'shma Shtatlar iqtisodiyotining qimmatli haydovchisi bo'lgan kichik biznes Covid-19 pandemiyasidan beri misli ko'rilmagan o'zgarishlarni ko'rdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari va xususiy guruhlarning so'rovlari rasmni yaxlitlashga yordam beradi. Quyidagi kichik biznes statistikasi 2024 yil holatiga ko'ra AQShdagi biznes manzarasining qisqacha tasvirini beradi.⁹



AQShdagi barcha xodimlarning sohalar bo'yicha ulushi (2024)¹⁰

⁹ <https://www.nerdwallet.com/article/small-business/small-business-statistics>

¹⁰ https://www.forbes.com/advisor/business/small-business-statistics/#sources_section



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi¹¹

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o'rirlari yaratish borasidagi imkoniyat va salohiyati uning harakatchanligi, ko'lam jihatidan ixchamligi va yo'nalishni tez o'zgartira olishi kabi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. To'g'ri, mantiqan qaraganda, yirik korxona kichik korxonaga nisbatan bir necha o'nlab, yuzlab, hattoki, minglab marta ko'proq ishchilarni yollash orqali mutlaq ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Biroq, masalaning boshqa bir jihat mavjudki, yirik korxona o'z xodimlari tarkibini bir marta to'ldirgandan so'ng, uning yangi ish o'rni yaratish imkoniyati keskin qisqaradi yoki tugaydi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari esa, yaxlit soha sifatida ozgina qo'shimcha daromad olish imkoniyati paydo bo'lgan joyda uzlusiz tarzda va tezlik bilan yangidan-yangi ish o'rinlarini yaratishga harakat qiladi.¹²

Umuman olganda, ushbu sohaning taraqqiyoti sezilarli ta'siri, bu borada erishilayotgan yutuqlar haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin.¹³ Mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilib, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha manzilli va ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga javoban, mazkur soha ham iqtisodiyotimizning turli jabhalarida o'zining bunyodkorlik va yaratuvchanlik, faollik va jo'shqinlik baxsh etuvchi xususiyatlarini namoyon etib, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida xizmat qilyapti.

Foydalanaligan adabiyotlar

- <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi-uning-mamlakat-ijtimoiy-iqtisodiy-taraqqiyotiga-ta-siri/viewer>
- Stat.uz
- <https://www.gazeta.uz/uz/2024/06/04/nbu/>
- <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>

¹¹ Stat.uz

¹² <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>

¹³ <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>

5. <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>
6. <https://www.nerdwallet.com/article/small-business/small-business-statistics>
7. https://www.forbes.com/advisor/business/small-business-statistics/#sources_section
8. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7958>
9. <https://openconference.us/index.php/germany/article/download/300/266>